Improving the Methodology of Econometric Analysis of the Efficiency of Financial Activity of Agricultural Agroclusters of Uzbekistan.....	1108
Ochilov Ilhom Sayitkulovich	
O'zbekistonda "Yashil" iqtisodiyotga o'tish va "Uglerod neytralligiga erishish" strategiyalarining ahamiyati	1116
Pulatov Dilshod Haqberdiyevich, Qulliyev Ulug'bek Mirzayevich, Mamataliyev G'ayrat Chori o'g'li, Bazarov Shodi Abdirahmonovich	
Oziq-ovqat mahsulotlari brend qiymatini oshirishda marketing strategiyalari.....	1123
Xodjiyev Ibroxim Ikramovich	
Актуальные вопросы укрепления доверия населения к банковской системе Республики Узбекистан	1129
Рузиева Нилуфар Тулкин кизи	
Hududlarda ijtimoiy-iqtisodiy nomutanosiblikni kamaytirish uchun mintaqaviy siyosat vositalarining xorijiy mamlakatlar tajribasi.....	1135
Normurodov Alibek Anvar o'g'li	
Mintaqa korxonalarining rivojlanish potensialini shakllantirishda innovatsion marketingning o'rni va mohiyati	1142
Axmedov Alim Babaniyazovich	
O'zbekistonda turizm sohasini rivojlantirishning ijtimoiy-iqtisodiy jihatlarini tokomillashtirish yo'llari.....	1146
Samandarova Dilfuza Mansurovna	
Raqamli iqtisodiyot sharoitida ishsizlikning iqtisodiy oqibatlari: mavjud muammolar va yechimlar	1153
Fatilloev Farrux Farhod o'g'li	
O'zbekiston Respublikasida qishloq xo'jaligi tarmog'iga ta'sir qiluvchi ko'rsatkichlarning iqtisodiy-statistik tahlili	1158
Zakirova Umida Maxamadaminovna	
Banklar tomonidan muammoli kreditlar bilan ishlash samaradorligini oshirish yo'llari ("Agrobank" ATB misolida).....	1167
Yusufov Xurshidjon Sharifovich	
Namangan viloyatida don va don mahsulotlari narxini shakllanishining bozor tadqiqoti.....	1172
Bahriddinov Jahongirbek Ravshanjon o'g'li	




O'zbekiston Respublikasi va xorijda tog' turizmini rivojlantirish omillarini qiyosiy baholash	1177
Mavlanov G'olibjon Muxammad o'g'li	
Improving The Effective Use Of Local Taxes And Levies In Tashkent City	1182
Shahzad Zokhidov	
Совершенствование методологии механизмов налогообложения ресурсного налога	1186
Мухиддинов Талат Шайдулло угли	
Tadbirkorlik faoliyatida investitsiya muhitining xususiyatlari va chet el kapitalining jozibadorligi.....	1189
I. M. Kamoliddinov, To'khtasinov Boburbek Yusufjon o'g'li	
Kichik biznes tarmoqlariga investitsiyalarni jalb etish xususiyatlari.....	1194
Abdug'aniyev Murodjon Shavkat o'g'li	
Inson resurslarini boshqarish tizimini takomillashtirish orqali iqtisodiyot tarmoqlarini rivojlantirish.....	1199
Xodjamov Asliddin O'ktam o'g'li	
Organik qishloq xo'jaligiga o'tishning rivojlanayotgan mamlakatlardagi iqtisodiy va ekologik afzalliklari.....	1203
Ahrorov Farhod Baxriddinovich	
Korxonalarda uzumchilik mahsulotlarni ishlab chiqarishda strategik boshqarishda mintaqaviy klaster modellashirishdan foydalanish	1208
Muhitdinov Asror Akobirovich	
Qashqadaryo viloyatida ishsizlik darajasini istiqbolda kamaytirish ssenariylari	1213
Djumayev Zayniddin Axmedovich, Hamdamov Shahzod Ilhom o'g'li	
Kam ta'minlangan oilalarda tadbirkorlik faoliyatini o'ziga xos yo'llari va imkoniyatlari	1219
Tursunov Nozimjon Nosirovich	
Korxonalar samaradorligini oshirishda soliqlar va soliq siyosatining ahamiyati.....	1223
Saida Yuldasheva	
The Contribution of Ecotourism in Developing Gdp in Uzbekistan	1227
Saidova Dildora Nurmatovna, Umarov Husanboy Bahromjon o'g'li, Xolyigitov Umidjon Alijon o'g'li	
Mehmonxonalar faoliyatini moliyalashtirish imkoniyatlarini oshirishda turizmning o'rni.....	1231
Abduraxmanova Ziyoda Abdullayevna	
O'zbekistonda tadbirkorlik subyektlarining barqarorlik reytingini joriy etilishi va undagi asosiy o'zgarishlar tahlili.....	1237
Normurzayev Umid Xolmurzayevich	
Tog' va tog'oldi hududlari qishloq xo'jaligini ixtisoslashtirish va rivojlantirish yo'llari.....	1245
Abdulxayeva Gulshan Maxmudovna	
Правовые основы маркетинговых стратегий акционерных обществ в Республике Узбекистан	1250
Эркинов Шахзод Баходир ўғли	
O'zbekiston Respublikasida tadbirkorlik subyektlarining yashirin iqtisodiyot ulushini qisqartirish hisobiga budjet daromadlari barqarorligini baholash amaliyoti.....	1254
Ikramov Ravshan Amanbayevich	



TOG' VA TOG'OLDI HUDUDLARI QISHLOQ XO'JALIGINI IXTISOSLASHTIRISH VA RIVOJLANTIRISH YO'LLARI

Abdulxayeva Gulshan Maxmudovna

Termiz davlat universiteti
Turizm va mehmonxona xo'jaligi kafedrasasi dotsenti



Annotatsiya: Ushbu tadqiqotning asosiy maqsadi tabiiy iqlim va tuproq sharoitlarini inobatga olgan holda ma'lum turdagi qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtirishga ixtisoslashtirish imkoniyatlarini tavsiflashdir. Tadqiqotda, mintaqalashtirish orqali, aholi va mehnat resurslari hamda qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishi xususiyatlarini aniqlash borasida fikrlar bildirilgan.

Tog' va tog'oldi hududlarida iqlim o'zgarishiga moslashgan qishloq xo'jaligi va unga mos agrotexnologiyalar tizimini shakllantirish, tarmoq tuzilishini diversifikatsiyalash hamda ekin maydonlari tarkibini optimallashtirish asosida tog' va tog'oldi qishloq xo'jaligini ixtisoslashtirilishini zaruriyatga aylantiruvchi omil hamda xususiyatlar yoritilgan.

Kalit so'zlar: Tog' va tog'oldi hududlari, raqobat, yer resursi, yalpi qishloq xo'jaligi mahsuloti, dehqonchilik, ekonometrik model, mehnat resurslari, global iqlim o'zgarishi, ekologik barqarorlik, diversifikatsiya.

Abstract: The main goal of this study is to describe the possibilities of specialization in the cultivation of certain types of agricultural products, taking into account the natural climate and soil conditions. The study expressed views on determining the potential of population and labor resources and agricultural production through regionalization.

Formation of a climate-change-resistant farming system and agricultural technologies in mountain and foothill areas, diversification of the network structure and optimization of the structure of sown areas, factors and conditions that make the development of mountain and foothill agriculture necessary. highlighted in the article.

Key words: Mountain and mountainous regions, competition, land resources, gross agricultural output, farming, econometric model, labor resources, global climate change, environmental stability, diversification.

Аннотация: Основная цель данного исследования – описать возможности специализации в выращивании отдельных видов сельскохозяйственной продукции с учетом природного климата и почвенных условий. В исследовании были высказаны мнения по поводу определения потенциала населения и трудовых ресурсов и сельскохозяйственного производства посредством регионализации.

Формирование устойчивой к изменению климата системы земледелия и агротехнологий в горных и предгорных районах, диверсификация сетевой структуры и оптимизация структуры посевных площадей, факторы и условия, делающие необходимым развитие горного и предгорного земледелия. выделено в статье.

Ключевые слова: Горные и горные регионы, конкуренция, земельные ресурсы, валовая продукция сельского хозяйства, земледелие, эконометрическая модель, трудовые ресурсы, глобальное изменение климата, экологическая стабильность, диверсификация.

KIRISH

Bugungi kunda oziq-ovqat xavfsizligi ko'plab mamlakatlar uchun muhim masalalaridan biri bo'lib kelmoqda. Birlashgan Millatlar Tashkilotining Oziq-ovqat va qishloq xo'jaligi tashkiloti (FAO) hamda Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti ma'lumotlariga ko'ra, dunyoda 840 milliondan ortiq kishi to'yib ovqatlanish imkoniyatiga ega emas. Bu jahon aholisining deyarli har sakkiz nafaridan biri demakdir¹. Agar 2024-yilda dunyo aholisi 8 milliard 73 million kishini tashkil etgan bo'lsa, 2050-yilga borib, dastlabki hisob-kitoblarga ko'ra, u 9,8 milliarddan oshadi, bu esa oziq-ovqatga bo'lgan talabning sezilarli darajada oshishiga olib keladi. Shu sababli, mamlakat oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashda hududlar salohiyatidan, xususan tog' va tog'oldi hududlari qishloq xo'jaligini rivojlantirish va ushbu hududlar imkoniyatlaridan oqilona foydalanish zaruriyatini keltirib chiqarmoqda.

¹ <http://protoday.uz/uz/archives/239608>



Global iqlim o'zgarishiga moslashgan qishloq xo'jaligi tizimini shakllantirish, o'sib borayotgan aholining oziq-ovqat mahsulotlariga bo'lgan talabini qondirish, mamlakat oziq-ovqat xavfsizligini mustahkamlash hududlar qishloq xo'jaligini barqaror rivojlanishini ta'minlash bilan birga ijtimoiy-iqtisodiy va ekologik barqarorlikni saqlash talab qilamayotganligi bois, bu butun jahonda dolzarb masalalardan biri bo'lib qolmoqda.

Bugungi kunda mamlakat bo'yicha qishloq tumanlarining 42,1 foizi, jami yer maydonlarining 43,6 foizi, jumladan, qishloq xo'jaligiga yaroqli yerlarning 55,3 foizi, shuningdek, yaylovlarning 5,6 foizi tog' va tog'oldi hududlarida joylashgan. Ushbu hududlarda respublika aholisining 37,0 foizi, shu jumladan, qishloq aholisining 46,2 foizdan ko'prog'i isteqomat qilmoqda. Respublikada yetishtirilayotgan yalpi qishloq xo'jaligi mahsulotining 46,5 foizi aynan shu hududlarda yaratilmoqda. Ushbu hududlar qishloq xo'jaligini o'ziga xos xususiyatlari hamda uning mamlakat oziq-ovqat mustaqilligini ta'minlash va agrar soha tarmoqlarini barqaror rivojlantirish omillaridan biri bo'lib qolishini ta'kidlagan holda oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishni yanada ko'paytirishning strategik yo'nalishlarini belgilash, mazkur hududlar imkoniyatlaridan oqilona va samarali foydalanish yo'llarini izlab topish zaruriyatini keltirib chiqarmoqda.

Tog' va tog'oldi hududlari qishloq xo'jaligida asosiy vosita sanalgan yer resurslaridan samarali foydalanish cheklangan yer va suv resurslari sharoitida ushbu hududlar ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotining muhim omillaridan sanaladi. Shu bois, mustaqillikning dastlabki yillaridan boshlab tabiiy resurslardan samarali foydalanishga qaratilgan qator islohotlar amalga oshirilmoqda. Aksariyat tog' va tog'oldi hududlarida tuproq tarkibi buzilib, unumdor yerlar qisqarib borayotgani, cho'llanish, suv yetishmasligi, qurg'oqchilik, aholini toza ichimlik suvi bilan ta'minlash" ^[1] kabi muammolarning saqlanib qolayotganligi o'z navbatida tabiat boyliklari va birinchi navbatda ushbu hududlar qishloq xo'jaligida yer resurslaridan foydalanishning yangi samarali yo'nalishlarini izlab topishni taqazo etadi.

Respublikamiz agrar sohasida olib borilayotgan islohotlarda hududlarni tabiiy iqlim va tuproq sharoitlarini inobatga olgan holda ma'lum turdagi qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtirishga ixtisoslashtirishni qo'llab-quvvatlashga ustuvor vazifa sifatida qaralib, uning bajarilishini ta'minlashga yo'naltirilgan qator chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda ^[2].

Tog' va tog'oldi hududlari nafaqat ichki, balki tashqi bozorlar talabiga javob bera oladigan meva, uzum, kartoshka, sabzavot, go'sht va sut kabi oziq-ovqat mahsulotlari yetishtirish bo'yicha deyarli barcha ishlab chiqarish imkoniyatlariga ega. Ushbu imkoniyatlarni faollashtirish yo'llaridan biri tog' va tog'oldi hududlarda yer resurslaridan oqilona foydalangan holda qishloq xo'jaligi salohiyatidan samarali foydalanish tizimini joriy etish asosida ma'lum turdagi qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtirishga ixtisoslashtirish hisoblanadi. Shuningdek, mazkur hududlar kesimida agrar sektorni rivojlanishidagi muammolar va ularning yechimlari bo'yicha ilmiy takliflar va amaliy tavsiyalar ishlab chiqish dolzarb va muhim masala hisoblanadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Tog' va tog'oldi hududlari qishloq xo'jaligida yer resurslaridan oqilona foydalanish holati retrospektiv tahlili shundan dalolat bermoqdaki, oxirgi yarim asr vaqt davomidagi aksariyat tadqiqotlar tog' va tog'oldi hududlarida yetishtiriladigan qishloq xo'jaligi ekinlari agrotexnologiyasi va bu jarayonda foydalaniladigan resurs va omillar ta'siri masalalariga bag'ishlangan bo'lib, ularda iqtisodiy masalalar juda qisqa doirada yoritilgan. Aynan shunday holatni chorvachilik masalalariga qaratilgan tadqiqotlarda kuzatish mumkin, ularda nasl va uning irsiy mahsuldorligi hamda uni oshirish masalalari o'rganilgan, xolos. Boshqa yo'nalishdagi tadqiqotlar, xususan, hududning resurs salohiyati va xususiyatlari muammolariga bag'ishlangan.

Tadqiqotlarimiz ko'rsatishicha, nafaqat respublikamiz, balki mustaqil davlatlar hamdo'stligi davlatlari ilmiy va maxsus adabiyotlarida tog' va tog'oldi hududlari borasida turli qarashlar ilgari surilmoqda. Respublika bir guruh olimlari, ushbu hududlarni zonalashtirish orqali, aholi va mehnat resurslari hamda qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishi xususiyatlarini aniqlash borasida fikrlar bildirilgan ^[3].

G.E.Avakiyan tog'li hududlar haqida fikr yuritib, baland tog'li hududlar bilan past tog'li hududlardagi qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishining holati, tabiati va sharoitidagi farqlar tog' va tog'oldi qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishi tizimini shakllantiruvchi omil sifatida muhim ahamiyat kasb etishini ta'kidlagan ^[4].

Shuningdek, "tog' va tog'oldi hududlari qishloq xo'jaligi"ning ta'rifi, bo'yicha ham, uning barqarorligi va tarkibiy qismi haqida yagona fikrga kelinmagan.

P.G.Abdulmanapov va M.A.Galbatsdibirovalar o'z tadqiqotlarida tog'li hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish va bu hududlardagi demografik jarayonlar va ularning o'ziga xos xususiyatlari masalalarini tadqiq etishgan ^[5].

Mirzon Nekruz Mirzonning fikri bo'yicha esa "Tog' qishloq xo'jaligining barqaror rivojlanishi deganda moliyaviy va texnologik shakllanish mazmunidagi barqarorlik, ishlab chiqarishni ko'paytirish, unumdorlikni oshirish,



shuningdek, tabiiy resurslar salohiyatini hisobga olgan holda uyg'unlashtirilgan shakllanishni ta'minlash nuqtayi nazardan barqarorlik tushuniladi"^[6].

Ushbu tadqiqotlarning ilmiy-nazariy va amaliy ahamiyatini yuqori baholagan holda ta'kidlash joizki, mazkur iomiy izlanishlarda tog'li hududlar qishloq xo'jaligini yuritish shakli va uning xususiyatlari, samaradorligi hamda istiqbollari masalalari o'rganilmagan.

NATIJA

Respublikamiz agrar sohasida olib borilayotgan islohotlarda hududlarni tabiiy iqlim va tuproq sharoitlarini inobatga olgan holda ma'lum turdagi qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtirishga ixtisoslashtirishni qo'llab-quvvatlashga ustuvor vazifa sifatida qaralib, uning bajarilishini ta'minlashga yo'naltirilgan qator chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda².

Tog' va tog'oldi hududlari nafaqat ichki, balki tashqi bozorlar talabiga javob bera oladigan meva, uzum, kartoshka, sabzavot, go'sht va sut kabi oziq-ovqat mahsulotlari yetishtirish bo'yicha deyarli barcha ishlab chiqarish imkoniyatlariga ega. Ushbu imkoniyatlarni faollashtirish yo'llaridan biri tog' va tog'oldi hududlarini ularda qishloq xo'jaligi salohiyatidan oqilona va samarali foydalanish tizimini joriy etish asosida ma'lum turdagi qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtirishga ixtisoslashtirish hisoblanadi.

Ushbu tizimning maqsadi tog' va tog'oldi hududlarida oziq-ovqat mahsulotlari yetishtirish hajmlarini ko'paytirish orqali ichki bozorlarimizni sifatli hamda ekologik toza mahsulotlar bilan ta'minlash vositasida ularning eksport salohiyatini oshirishdir.

Bunday tizimning tashkiliy asosini meva, shu jumladan, an'naviy va noan'anaviy subtropik meva, uzum, sabzavot, qoramol va qo'y go'shti yetishtirishga ixtisoslashgan klasterlar, kooperativlar hamda fermer va dehqon xo'jaliklari tashkil etadi.

Tadqiqotlarimiz ko'rsatishicha, Surxondaryo viloyati tog' va tog'oldi qishloq xo'jaligi o'z geografik joylashuvi va gidrometrik rejimiga hamda mos tuproq-geografiyasi qonuniyatlarini namoyon etuvchi balandlik mintaqalari va zonalarida shakllangan tuproq turlari va uning tarqalishi hamda unumdorligi darajasi mamlakatimizning boshqa tog' va tog'oldi hududlaridagidan ayrim jihatlari bilan farq qilmasa-da, qishloq xo'jaligini yuritish tizimini tashkil etish, xo'jalik yuritish shakllarining tashkiliy-xo'jalik imkoniyati va salohiyati, u yoki bu tarmoqning rivojlanganligi kabi jihatlari bilan farqlanadi.

Shu bois, tog' va tog'oldi hududlari qishloq xo'jaligini ma'lum soha va tarmoqlarga ixtisoslashtirish, qo'llab-quvvatlashga ustuvorlik berishda hudud tuproq tarkibi va unumdorligi, degradatsiyalashuv darajasi, yog'ingarchilik miqdori va samarali harorat yig'indisi kabi ko'rsatkichlar tahlil qilinib, qiyosiy baholanishi hamda ular asosida ixtisoslashtirish bo'yicha xulosa va takliflar tayyorlanish tavsiya etiladi.

Tahlillar ko'rsatishicha, Surxondaryo viloyati tog' va tog'oldi qishloq xo'jaligida foydalanilayotgan yer resurslari tarkibida amaliyotda qo'llanilayotgan tuproq tansifining 12 turi mavjud. Ularning 27,1 foizi och qo'ng'ir-o'tloqi dasht hamda jigarrang tuproqlardan, 37,1 foizi tipik bo'z va och tusli bo'z tuproqlardan iborat.

Tuproq tarkibi jihatidan tog' va tog'oldi qishloq xo'jaligida foydalanishda bo'lgan yerlarning 66,4 foizini og'ir va o'rta qumoq tuproqlar, tuproqning yuvilganlik darajasi bo'yicha eroziyaga uchraganlik indeksi esa 0,15 (o'rtacha yuvilganlik indeksi – 0,06 va kuchli yuvilganlik indeksi – 0,09) ni tashkil etmoqda³.


Tog' va tog'oldi qishloq xo'jaligini ixtisoslashtirishda inobatga olinishi lozim bo'lgan navbatdagi muhim omillardan biri bu xo'jaliklar hududi relefi hisoblanadi. Tog' va tog'oldi hududlarida relef hosil bo'lishiga eroziya, sel, jar ko'chishi, suv o'zanlarining keng va chuqur tarmoqlanishi, shuningdek, tog' jinslarining yemirilishi kabi omillar ta'sir etmoqda. Qishloq xo'jaligi tarmoq va sohalarini hudud relefi balandligiga mos ravishda shakllangan uchta poyas - tog'oldi (adirlar), tog' va baland tog' mintaqalarida daraxtzorlar, buta, yarim buta, efemer, efemorid va yirik o'simliklar tarqalganligini inobatga olib, bu hududlarda meva-bog'dorchilik va uzumchilik hamda yaylov chorvachiligini, asosan qo'ychilikni rivojlantirish maqsadga muvofiq.

Tadqiqotlar ko'rsatishicha, global iqlim o'zgarishi va ekologik holat keskinlashuvi nafaqat qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishi barqarorligini, balki ushbu soha va undagi tarmoqlarning istiqboldagi rivojlanish tendensiyalarini ham belgilab beruvchi omilga aylanib bo'ldi. Bugungi kunda hududlar bo'yicha qishloq xo'jaligi tarmoq tuzilishi va uning diversifikatsiyalashuv yo'nalishlarini belgilashda ham asos, ham omil bo'lib xizmat qilmoqda.

Tog' va tog'oldi hududlarida iqlim o'zgarishiga moslashgan qishloq xo'jaligi va unga mos agrotexnologiyalar tizimini shakllantirish, tarmoq tuzilishini diversifikatsiyalash va ekin maydonlari tarkibini optimallashtirish asosida tog' va tog'oldi qishloq xo'jaligini ixtisoslashtirilishini zaruriyatga aylantiruvchi omil va xususiyatlar jumlasiga quyidagilarni kiritish mumkin (1-rasm):

2 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 11 maydagi "Respublika hududlarini qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtirishga ixtisoslashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-4709-son Qarori. Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 12.05.2020 y., 07/20/4709/0577-son.

3 Surxondaryo viloyati yer resurslari, geodeziya, kartografiya va davlat kadastri boshqarmasi ma'lumotlari asosida muallif hisob-kitoblari.



1-rasm: Boysun tumani hududida yomg'irli kunlar sonining o'zgarishining, o'rtacha ko'rsatkichlari (1961–1990-yy. va 2015–2019-yy)⁴

- tahlil qilinayotgan va taqqoslanayotgan davrlar mobaynida yillik o'rtacha yog'ingarchilik miqdorining kamayish sur'ati o'rtacha 0,44 foizni tashkil etmoqda, ya'ni o'rtacha yillik yog'ingarchilik miqdori 1961–1990-yillardagi 417 mm. dan, 2015–2019-yillar mobaynida o'rtacha 311 mm gacha, ya'ni 106 mm. ga yoki 25,4 foizga kamaygan;
- yog'ingarchilik miqdorining yil oylari davomida kamayishi bilan bir qatorda, yog'ingarchilik miqdorining oylar kesimida ham o'zgarishi va siljish tendensiyasi ham kuzatilmoqda. Bu holat oxirgi o'n yillarda yanada kuchliroq namoyon bo'lmoqda;
- yoz oylarida yog'ingarchilik miqdori ham nisbiy, ham mutlaq jihatdan kamayish tendensiyasini namoyon etib, taqqoslanayotgan yillar mobaynida o'rtcha yillik miqdori 56 foizga qisqargan. Eng xavotirli holat shundaki, bunday holat oxirgi yillarda kuzatilmoqda;
- kuz oylari davomida esa taqqoslanayotgan davrlar mobaynida o'rtacha yog'ingarchilik yillik miqdori 23,5 foizga pasayishi kuzatilmoqda.

Demak, tahlil qilinayotgan va qiyoslanayotgan davrlar mobaynida yomg'irli kunlar soni va yog'ingarchilik miqdori qisqarishi bilan bir qatorda, yomg'ir yog'adigan oy va yil fasllarida siljish hamda kamayish tendensiyasi kuzatilmoqda.

Bularning barchasi, tog' va tog'oldi qishloq xo'jaligida xo'jalik yuritishning o'ziga xos, tekislik va cho'l-yay-lovlardagi dehqonchilik va chorvachilik tizimidan konseptual jihatdan farq qiladigan qishloq xo'jaligini yuritish tizimini shakllantirishni zaruratga aylantirmoqda. Chunki, yuqorida qayd etilgan omil va xususiyatlar qishloq xo'jaligida yer va suv hamda boshqa tabiiy resurslardan foydalanish holati, xususiyati va istiqbollariga ta'sir etib, global iqlim o'zgarishi, integratsiya, yuqori daromad, jadal rivojlanish, raqobat, texnogen va antropagen kabi omillar ta'sirida qishloq xo'jaligi sohasi barqarorligiga, demak aholini oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlash va mamlakat oziq-ovqat xavfsizligi darajasiga salbiy ta'sir etishi mumkin.

Bunday salbiy holatlar ta'sirini pasaytirish, optimallashtirish va nisbattan barqarorligini ta'minlash yo'llaridan biri jahon qishloq xo'jaligi amaliyotida kuzatilayotgan "qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtirishga hududlarni ixtisoslashtirish" kabi, tog' va tog'oldi qishloq xo'jaligini ham tarmoq va sohalarga ixtisoslashtirish hisoblanadi.

Ta'kidlash joizki, Surxondaryo viloyatining Boysun, Sariosiyo, Denov va Uzun kabi tog' va tog'oldi hududlarini meva-bog'dorchilik va uzumchilikka kengroq ixtisoslashtirish hamda uni uzoq muddatli qo'llab-quvvatlash tizimini joriy etgan holda rivojlanishini ta'minlash ham agrotexnik nuqtai nazardan⁵, ham ishlab chiqarish va iqtisodiy jihatdan samarali. Bu ekologik va iste'mol xususiyatlari jihatidan nafaqat ichki balki tashqi bozorlarda raqobatbardosh bo'la oladigan meva-cheva va uzum mahsulotlari yetishtirishga xizmat qiladi. Shu bois, bu yo'nalishdagi faoliyatni meva-bog'dorchilik klasterlari tizimi yoki klaster tamoyillarida faoliyat ko'rsatadigan majmua hamda kooperatsiya tamoyillariga asoslangan kooperativlarni tashkil etish maqsadga muvofiq.

4 World-Weather, <https://world-weather.ru/pogoda/uzbekistan/boysun/>, shuningdek, Surxondaryo viloyati tog' va tog'oldi hududlari meteo stansiyalari ma'lumotlari asosida muallif hisob-kitoblari.

5 Дорохова Е.А., Байметов К.И., Ахмедов Ш.М. "Описание сортов и форм яблоны". – Т.: "Fan va texnologiya", 2016, 188-189-betlar.



XULOSA VA TAKLIFLAR

Tog' va tog'oldi hududlarining o'ziga xos tabiiy-iqlim sharoitiga muvofiq, qishloq xo'jaligi ixtisoslashuvi, uning barqaror rivojlanishining asosiy yo'nalishlarini dehqonchilik yo'nalishida g'alla, kartoshka, dorivor o'simliklar yetishtirish, bog'dorchilikda an'naviy yetishtiriladigan mevalardan tashqari noan'anaviy subtropik mevalar, ya'ni, eksportga katta talabga ega grek yong'og'i, bodom, pista bo'lsa, chorvachilikda esa, sut yo'nalishida qoramolchilik, go'sht yo'nalishida echkichilik, parrandachilikda kurkachilik, tansiq va foydali hisoblanadigan kakliklar⁶ hamda kiyiklarni ko'paytirish, bundan tashqari, quyunchilik, baliqchilik, ayniqsa asalarichilikni rivojlantirishga alohida e'tibor qaratish lozim.

Istiqbolida tog' va tog'oldi qishloq xo'jaligini rivojlantirishning asosiy yo'nalishlaridan biri hududlar tabiiy iqlim sharoitlariga moslashgan, yetarli darajada shakllangan mehnat ko'nikmasi hamda innovatsion agrotexnologiyalarga asoslangan qishloq xo'jaligi soha va tarmoqlarini taraqqiy etdirish hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlis va O'zbekiston xalqiga Murojaatnomasi. T.// Xalq so'zi, 2022-yil 20-dekabr.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 11-maydagi "Respublika hududlarini qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtirishga ixtisoslashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-4709-son qarori. Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 12.05.2020-y., 07/20/4709/0577-son.
3. Jumayev.T "O'zbekistonning tog'li joylarida qishloq xo'jaligi". – T: "Fan", 1982. B.61.
4. Amonov X.N Surxondaryo viloyati tog'li hududlari iqtisodiy salohiyatidan foydalanishning geografik asoslari (Boysun tumani misolida) i.f.n avtoreferati. TDIU, 2008.B.8.
5. Абдулманапов.П.Г., Галбацдибиров. М.А. Современные исследования социальных проблем (электронный научный журнал), Modern Research of Social Problems, №5(49), 2015 www.sisp.nkras.ru. 689-стр.
6. Abdulkhaeva.G. Main Directions For Development of Sewerage Regions of Mountainous and Bounded Territo.// International Journal of Research in Management & Business Studies. IJRMBS 2019. P.55- 58. (Global Impact Factor 0.705)
7. Abdulxayeva. G. Agriculture promotion and development in mountain and mountain regions. // International journal of trends in marketing management. IJRMBS 2022 ISSN: 2349-4204 Vol.9.
8. O'zbekiston Respublikasi yer resurslari,geodeziya,kartografiya va davlat kadastri davlat qo'mitasi "O'zbekiston Respublikasi yer fondi". Toshkent – 2019.
9. O'zbekiston Respublikasi Yer resurslari,geodeziya, kartografiya va Davlat kadastri Davlat Qo'mitasi. Toshkent – 2018-y.

6 Izoh. 100 gr qovurilgan kaklik go'shtida 250 kkal mavjud. Manba:Selo-Exp.com

Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>

Yashil

IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Xondamir Ismoilov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2024. № 4

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: [@iqtisodiyot_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77)

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, [@iqtisodiyot_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77) telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnalning ilmiyligi:

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2023-yil 1-apreldagi 336/3-sonli qarori bilan ro'yxatdan o'tkazilgan.